

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALGA OSHIRALAYOTGAN JINOIY -HUQUQIY SIYOSATNING MOHIYATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi
huzuridagi Bojxona Qo'mitasi xodimi*

*Ilmiy rahbar: **Achilov Alisher Temirovich***

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

*Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

e-mail:achilov1976@mail.ru

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida ijtimoiy munosabatlarni yanada rivojlantirish, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish, eng avvalo shaxs, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa uzviy huquqlarini muhofaza qilish uchun sharoit yaratilmoqda.

Har bir davlat ijtimoiy adolat, qonuniylik va insonparvarlikni ta'minlash maqsadida mustaqil jinoyat-huquqiy siyosat yuritadi. Davlat siyosatida u yoki bu masalani konseptual tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirilib, bunda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ustunligi ta'minlanadi.

“Jinoyat-huquqiy siyosat” tushunchasida “siyosat”, “huquqiy siyosat” “jinoyat-huquqiy siyosat” tushunchalari o'zida mujassamlashtirilgan bo'lib, shundan “siyosat” va “huquqiy siyosat” tushunchalari nazariyotchi olimlarimiz tomonidan yetarlicha tadqiq qilingan. Xususan, M.Rustambaev, Q.Abdurasulova, B.Axrarov⁴⁸, R.Zufarov, R.Kabulov, A.Yakubov⁴⁹, N.Salaev, X.Ochilov, R.Altiev va boshqalar asarlarida huquqiy siyosat mohiyati ochib berilgan. Rus olimlaridan P.N.Panchenko, B.T.Razgildiev, Ye.V.Lvovich, M.Yu.Voronin, A.I.Boyko⁵⁰lar o'z asarlarida huquqiy siyosat mohiyatini ochib berganlar.

Jinoyat huquqiy siyosat davlat ichki siyosatining ajralmas qismi bo'lib, o'zining ob'ekti, usullari va vositalari, vazifalari bilan boshqa sohalaridan farq

⁴⁸ M.X.Rustambaev, Q.R.Abdurasulova, B.J.Axrarov. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi Konsepsiyasi va doktrinasini rivojlantirish muammolari. BV-F7-007-016 raqamli davlat granti asosida chop etilgan. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011. -166 bet

⁴⁹ Уголовное право. Учебник / А.С.Якубов, Р.Кабулов и др. – Т.Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – ст. 48.

⁵⁰ Панченко П.Н. Советская уголовная политика. Томск. 1988. С. 74-80; Разгильдиев Б.Т. Уголовно-правовая политика: понятие и содержание // Правовая политика и правовая жизнь. 2000. С. 131-135; Львович Е.В. Уголовно-правовая политика: понятие и содержание // Науч. Труды. РАЮН: В 3 т. Т.2. М., 2004. С.597-598; Воронин М.Ю. Уголовная политика: понятие, история возникновения и развития. М., 2000. С. 4-11; Бойко А.И. Уголовная политика. Ростов н/Д, 2008. С. 7-26.

qiladi. Uning mazmuni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Bularning o'zgarishi bilan davlat ichki siyosatining bir qismi sifatida jinoyat huquqiy siyosatning mazmuni o'zgaradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishi jinoyat huquqiy siyosatni o'zgarishini talab qiladi. Jinoyat-huquqiy siyosat jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar rivojlanish darajasini prognozlash orqali kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga o'z vaqtida davlatning munosabat bildirishi faoliyati hisoblanadi. Davlat vakolatli organlari timsolida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qilinishi mumkin bo'lgan jinoyat tajovuzlarni oldini olishning samarali choralarini ishlab chiqilishi, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi prognozlaridan kelib chiqib, ayrim turdagi qilmishlarni kriminalizatsiya yoki dekriminalizatsiya qilish, ayrim turdagi jazolarni penalizatsiya yoki depanalizatsiya qilish, adolatni ta'minlashga qaratilgan jinoyat huquqiy siyosat yuritish faoliyatini amalga oshiradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat tushunchasi ilk marotaba nemis kriminalist olimi Anselma Feyerbaxning⁵¹ asarlarida qo'llanilgan bo'lib, ushbu atama keyinchalik Avstriya va Germaniya huquq maktabi nomoyondasi, jinoyat huquqi va xalqaro huquq bo'yicha mutaxassis, yuridik fanlar doktori Frans Fon List (nem. Franz von Liszt; 1851yil 2 mart, Vena, Avstriya —1919 yil 21 iyun, Zexaym, Gessen, Germaniya) ning "Jinoiy siyosatning vazifalari" asarida atroflicha yoritib berilgan.

Jinoyat huquqiy siyosat - bu fuqarolarning, jamiyatning va bevosita davlatning o'zining xavfsizligini boshqarish, jinoiy tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha davlatning umumiy strategiya va taktikalar ishlab chiqish va amalga oshirish sohasidagi faoliyatidir. Ushbu faoliyatni ilmiy tahlil qilish, ilmiy tushunish, uning maqsad va vazifalarini, mazmuni va shakllarini, yo'nalishlarini aniqlash, uning vositalari va usullari, jinoyat huquqiy siyosatni amalga oshirish jarayonini boshqarishga oid tegishli qoidalarni shakllantirish uning shakllanishi va rivojlanishining nazariy asosini tashkil etadi.

Davlat o'z vakolatli organlari timsolida jinoyat-huquqiy siyosatni yuritadi. Davlatning bu faoliyat turi normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

⁵¹ Чубинский М.П. Очерки уголовной политики: понятие, история и основные проблемы уголовной политики как составного элемента науки уголовного права. С.55-56; Лесников Г.Ю. Уголовная политика РФ (проблемы теории и практики). М., 2004. С.3.

Jinoyat qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

1994 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi⁵² shaxsni jinoiy tajovuzlardan samarali muhofaza qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash uchun huquqiy poydevor yaratdi.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimiz jinoyat qonun hujjatlarida uning normalarini takomillashtirishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini so'zsiz ta'minlash maqsadida ilg'or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni implementatsiya qilishga qaratilgan sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Davlat vakolatli organlari va mansabdor shaxslari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar orqali jinoyat qonunchiligini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Mustaqil O'zbekiston Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan so'ng jinoyat qonunchiligini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlari davlat rahbari tomonidan belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bergan 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bosqichi bo'ldi.

Xususan, jinoyat qonunchiligining yanada liberallashuvi hamda alohida toifadagi jinoyatlarni jinoiy yurisdiksiyadan chiqarish amalga oshirildi, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ro'yxati kengaytirildi.

«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilish, shuningdek, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Har bir xodim tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» degan ezgu g'oyani amalga oshirishga asoslangan holda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkil etish tubdan qayta ko'rib chiqildi.

Darhaqiqat, 2018 yil 14 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish

⁵² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/111453>

chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3723-son qarori⁵³ qabul qilinishi, jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat bo'ldi. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan Konsepsiya va uning mazmun-mohiyatini tahlil qilsak, unda sud-tergov amaliyotida, jumladan mamlakatning jinoiy-huquqiy siyosatini samarali ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan, jinoyat qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog'liq bo'lgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganiga e'tibor qaratildi hamda ushbu muammolar sanab o'tildi:

jinoyat qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish; jinoyatlarni profilaktika qilish va oldini olish, shuningdek, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyat va qonunga hurmat hissinii singdirish borasidagi mexanizmlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi;

alohida turdagi jinoyatlar uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralari yetarli darajada qo'llanilmasligi va samarasizligi;

xalqaro huquq va xorijiy amaliyotda e'tirof etilgan jinoyathuquqiy institutlarning yetarli darajada, jumladan yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash sohasida implementatsiya qilinmaganligi;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish juda past darajada ekanligi.

Yuqoridagilar e'tiborga olinib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi davlat jinoyat-huquqiy siyosatining mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilab olindi. Xususan,

Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan:

1. Jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish borasida

- jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilish;

- turlicha sharhlash yoki korrupsiya holatlari sodir etilishiga yo'l qo'yadigan yoxud ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilanishiga yo'l qo'yadigan normalarni chiqarib tashlash;

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>

- Jinoyat kodeksidagi fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar, qarama-qarshiliklar va «oq dog'lan»ni bartaraf etish;

- Jinoyat kodeksida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish;

- jinoyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyatni singdirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish ruhida tarbiyalash.

2. Jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish borasida

- jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakterini belgilovchi muqobil ko'rsatkichlarni joriy etish orqali jinoyatlarni tasniflash tizimi va mezonlarini qaytadan ko'rib chiqish;

- jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligining ishonchli kafolatini ta'minlash;

- jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko'rib chiqish, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazolar shakli va turlarini chiqarib tashlash;

- jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni tarbiyalash, shuningdek, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jazo turlari va boshqa huquqiy ta'sir choralari joriy etish;

- tamom bo'lmagan jinoyat, jinoyatda ishtirokchilik va bir qancha jinoyat sodir etish institutlarini ularning mezonlari va xususiyatlarini aniqlashtirish orqali takomillashtirish, shuningdek, ular o'rtasida mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish;

- rag'batlantiruvchi normalarni, jumladan jazoni engillashtirish yoki shaxsni jinoiy javobgarlik yoxud jazodan ozod qilish shartlarini o'rnatuvchi normalarni kengaytirish;

- qilmishning jinoiyiligini istisno qiluvchi holatlarni belgilovchi normalarni takomillashtirish;

- tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash institutini, jumladan mazkur choralarni qo'llash asoslarini kengaytirish orqali rivojlantirish.

3. Fuqarolar huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini amalda va ishonchli himoya qilishni ta'minlash borasida

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarning alohida tarkibini bosqichma-bosqich jinoiy yurisdiksiyadan chiqarish siyosatini davom ettirish;

- jinoiy jazolarning sanksiyalarini jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri bilan qat'iy muvofiqlashtirish, jazolarning muqobil turlarini

oqilona

va

mufanosib ravishda qo'llashni ta'minlash;

- jinoyat qonunchiligining, ayniqsa, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etgan, shuningdek, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari — voyaga etmaganlar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va qaramog'ida voyaga yetmagan bolalari bo'lgan yolg'iz shaxslarga nisbatan yanada insonparvarligini ta'minlash;

- og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, jumladan terrorizm, ekstremizm va korrupsiyaviy jinoyatlarni, shu bilan birga uyushgan guruh hamda jinoiy uyushma tarkibida qiynoqqa solish usullaridan foydalangan holda jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan keskin jinoiy siyosatni davom ettirish;

- jinoyat protsessiga jalb etilgan voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan jinoiy-huquqiy normalarni takomillashtirish;

- jinoyat qonunchiligiga dunyo hamjamiyatida tobora ortib borayotgan xavflarni hisobga olgan holda transmilliy va xalqaro jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikni kiritish;

- texnologik taraqqiyot, jumladan kiberjinoyat bilan bog'liq jinoyat turlarining kengayganligini hisobga olgan holda axborot texnologiyalari sohasida javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko'rib chiqish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasida Jinoyat qonunchilikni takomillashtirishni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida «Qonun ustuvor — jazo muqarran» tamoyili hayotga to'liq tatbiq etilishiga ma'lum darajada erishiladi deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, jinoyat-huquqiy siyosatning maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurarshishga xizmat qiluvchi samarali normativ huquqiy baza hamda vositalarini ishlab chiqish, jinoyatchilikni oldini olish hamda fuqarolarni davlat qonunlarini hurmat qilish va ularga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT-RESURS MANBALARI:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/111453>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son Qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>

3. M.X.Rustambaev, Q.R.Abdurasulova, B.J.Axrarov. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi Konsepsiyasi va doktrinasini rivojlantirish muammolari. BV-F7-007-016 raqamli davlat granti asosida chop etilgan. – T.:TDYul nashriyoti, 2011.
4. Уголовное право. Учебник / А.С.Якубов, Р.Кабулов и др. – Т.Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – ст. 48.
5. Лесников Г.Ю. Уголовная политика РФ (проблемы теории и практики). М., 2004.